

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ISMAILOV SHAXZOD AKRAMDJANOVICH

**HUQUQIY DAVLATNI BARPO ETISHDA ADVOKATURA INSTITUTI
MAQOMINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

**12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (PhD)
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Ismailov Shaxzod Akramdjanovich

Huquqiy davlatni barpo etishda advokatura instituti maqomini oshirish muammolari.....3

Исмаилов Шахзод Акрамджанович

Проблемы повышения статуса института адвокатуры в построении правового государства.....23

Ismailov Shakhzod Akramdjanovich

Problems of improvement of the status of the institute of advocacy in building a rule of law state.....45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

ISMAILOV SHAXZOD AKRAMDJANOVICH

**HUQUQIY DAVLATNI BARPO ETISHDA ADVOKATURA INSTITUTI
MAQOMINI OSHIRISH MUAMMOLARI**

**12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura**

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Yu1465 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent Davlat Yuridik Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (rus, o‘zbek, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ne’matov Jasur Aminjanovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To‘laganova Gulchehra Zahitovna
yuridik fanlar doktori, professor

Burxonova Gulrux Shuxratovna
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 11-dekabr kuni soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel./faks: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1393-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35. Tel.: +99871 233-66-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-noyabr kunida tarqatildi.

(2025-yil 25-noyabrdagi 65-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

I.B. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

D.B. Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda advokaturaning mustaqilligini ta'minlash muammolari huquqiy davlatni barpo etishda asosiy chaqiriqlardan biri bo'lib qolmoqda. BMTning Maxsus ma'ruzachisi ma'lumotlariga ko'ra, 38 ta mamlakatda professional yuristlarga nisbatan jismoniy va psixologik zo'ravonlik holatlari qayd etilgan¹. Ayniqsa, o'tish davri iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda advokaturaning institutsional mustaqilligi masalasi hanuz keskin ahamiyatga ega bo'lib, haqiqatan mustaqil professional advokatura tizimini shakllantirish jarayoni ortiqcha davlat nazorati va tortishuvchanlik prinsipining to'laqonli amal qilmasligi kabi muammolar bilan to'qnash kelmoqda. Mazkur xatarlarni kamaytirish va bartaraf etish maqsadida advokaturaning institutsional mustaqilligini mustahkamlash bo'yicha ustuvor choralarni amalga oshirish dolzarb hisoblanadi. Jumladan, davlat organlarining advokatlar faoliyatiga noqonuniy aralashuviga qarshi samarali huquqiy kafolatlarni joriy etish, haqiqiy vakolatlarga ega bo'lgan o'zini o'zi boshqaruvchi professional advokatlar palatalarini shakllantirish, advokatura mustaqilligini ta'minlash sohasida xalqaro hamkorlik va ilg'or tajriba almashinuvini kengaytirish hamda advokatlarni ta'qib va qo'rqitish holatlaridan himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda advokatura institutining maqomini oshirish va uning institutsional mustaqilligini mustahkamlash masalalari bugungi kunda huquqiy davlat barpo etish jarayonida ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu tadqiqotlar davlat organlari va boshqa subyektlarning noqonuniy aralashuviga qarshi samarali kafolatlarni shakllantirish, himoyachilarning protsessual vakolatlarini kengaytirish, advokatlarning professional faoliyati sifatini xalqaro tamoyillarga muvofiq belgilash va joriy etish, shuningdek advokatura amaliyotida zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etishga qaratilgan. Shu bilan birga, kasbga kirish shartlarini bosqichma-bosqich liberallashtirish bilan bir qatorda malaka talablarini kuchaytirish zarurligi alohida ta'kidlanmoqda. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida advokatlarning mustaqilligini ta'minlaydigan huquqiy kafolatlar qonuniy darajada mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, ular davlat organlari tomonidan advokatlar faoliyatiga aralashishni qat'iy man etadi hamda himoyachilarga nisbatan bosim o'tkazish uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi. Shuningdek, ijro hokimiyati organlari ta'sirisiz shakllantiriladigan mustaqil intizomiy organlar joriy etilib, advokatura hamjamiyati doirasida shikoyatlarni xolis va adolatli ko'rib chiqish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Biroq, amaldagi sharoitda advokatura birlashmalarida institutsional zaifliklar hamon mavjud bo'lib, ular a'zolari himoya qilish vakolatlarining cheklanganligi, adliya organlariga haddan tashqari qaramlik hamda moliyaviy va tashkiliy jihatdan yetarlicha mustaqillikka ega emasligi bilan namoyon bo'lmoqda. Mazkur omillar advokaturaning barqaror

¹ Advokatlarning o'z yuridik kasbini erkin va mustaqil amalga oshirishiga noqonuniy aralashuvdan himoya. Sudyalar va advokatlar mustaqilligi masalasi bo'yicha Maxsus ma'ruzachi Diego Garsiya-Sayan hisoboti. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Bosh Assambleya. Inson huquqlari bo'yicha Kengash. Elliginchi sessiya 2022-yil 13-iyun – 8 iyul. A/HRC/50/36.

va mustaqil o'zini o'zi boshqarish modellarini ishlab chiqish, advokatura palatalarining professional standartlarga rioya etilishini ta'minlashdagi rolini yanada kuchaytirish, shuningdek tashqi bosim va ta'sirlarga qarshi samarali mexanizmlarni shakllantirishga qaratilgan chuqur ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etadi.

Respublikamizda fuqarolik jamiyatining ajralmas elementi va shaxsning huquqiy himoyasini ta'minlashning asosiy mexanizmi sifatida advokatura institutini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirildi. Advokatlar faoliyatining huquqiy asoslarini yaratish, ularning protsessual vakolatlarini kengaytirish va advokatura hamjamiyatining tashkiliy tuzilmasini mustahkamlash odil sudlov sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilangan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan yanada samarali chora-tadbirlar belgilangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida sohani isloh qilishning asosiy yo'nalish va vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Jumladan: advokaturani chinakam o'zini o'zi boshqarishga o'tkazish, yosh mutaxassislarni jalb etish, advokatlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zamonaviy va samarali vosita hamda institutlarni yaratish, ortiqcha rasmiyatchilikni qisqartirish, bepul yuridik yordam hajmini kengaytirish kabi vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalar advokaturaning funksional va institutsional mustaqilligini oshirish, ushbu sohada qonunchilikni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 349-I-son "Advokatura to'g'risida", 1998-yil 25 dekabrda 721-I-son "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi PF-3993-son "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 16-yanvardagi PF-11-son "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda ushbu sohada boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik

davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha mamlakatimizda advokatura institutining fuqarolik jamiyati tarkibiy qismi sifatida maqomini oshirish va uning chinakam institutsional mustaqilligini ta'minlash masalalari kompleks tarzda o'rganilmagan.

Shu bilan birga, o'quv adabiyotlari hamda ayrim tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ushbu mavzuning faqat ayrim jihatlarini yoritib bergan. Jumladan, B. Salomov, X.T. Odilqoriev, Sh.N. Ruzinazarov, V.K. Babaev, A.S. Tumanova, Yu. Habermas, M.M. Xovard, M.X. Rustamboev, U.A. To'xtasheva, O.M. Madaliyev, L.Yu. Grudtsina, S. Qodiraliyev, G. Tulyaganova, V.X. Davlyatov, J.X. Abdurahmonxo'jayev kabi olimlar advokaturaning fuqarolik jamiyati institutiga bo'lgan munosabatini ma'lum darajada tadqiq etganlar.

O'zbekiston Respublikasida advokaturaning institutsional mustaqilligi bilan bog'liq mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari B.Salomov, V.Davlyatov, J. Turdaliyev, A. Imomqulov, L. Yugay va S. Rahmonov tomonidan ko'rib chiqilgan. Taklif etilgan choralarda orasida xalqaro tajribani inobatga olgan holda advokat maqomini mustahkamlovchi va Davlat organlarining Advokatlar palatasi faoliyatiga aralashuvini cheklovchi yangi "Advokatura to'g'risida"gi qonunni ishlab chiqish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Olimlar B.Salomov, M. Ansel, A. Matmurotov, V.X. Davlyatov, A.V. Ragulin, E.V. Ryabtseva, A.U. Egamberdiyev, L.P. Kobets, L.Yu. Grudtsina advokatlik faoliyatining xalqaro huquqiy standartlarini o'rganishgan. Ular o'z ilmiy ishlarida quyidagi xulosaga kelishgan: huquqiy davlatlar uchun advokatura faoliyatini tartibga solishda umumiy tamoyillarning mavjudligi xos bo'lib, bu esa milliy qonunchilikni xalqaro huquqiy hujjatlar bilan uyg'unlashtirish jarayoni bilan belgilanadi.

Xorijiy yuridik fanida advokaturaning huquqiy maqomi va uning mustaqilligini ta'minlash muammolari T. Christensen, J. Spiro, V.Yu. Abramov, S.E. Libanova, Yu.S. Pilipenko, S.I. Volodina, A.G. Kucherena¹ kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ularning ishlarida advokatura hamjamiyatining o'zini o'zi boshqarish masalalari, sudga murojaat qilish imkoniyatini ta'minlashdagi advokaturaning roli, kasbiy faoliyatning axloqiy standartlari, advokatlarning institutsional kafolatlari va davlat boshqaruvi ta'sirining advokatura faoliyatiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilingan.

Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarning barchasi tor ixtisoslashgan xarakterga ega bo'lib, advokaturaning chinakam institutsional mustaqilligini ta'minlash muammolarini kompleks tarzda qamrab olmaydi. Shu munosabat bilan mazkur muammoning tashkiliy-huquqiy va amaliy jihatlarini har tomonlama o'rganish huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelayotgan ayrim qiyinchiliklarni bartaraf etishga, shuningdek mazkur sohani tartibga soluvchi qonun normalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

¹ Bu va boshqa mualliflarning ilmiy ishlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda "Huquqiy davlatni barpo etishda advokatura instituti maqomini oshirish muammolari" doirasida oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi advokaturani fuqarolik jamiyatining instituti sifatida takomillashtirish, advokatlik litsenziyasini olishdagi byurokratik to'siqlarni kamaytirish, advokatning huquqiy maqomi va nufuzini oshirishga qaratilgan asosli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat bo'lib, bu institutning institutsional va funksional mustaqilligini kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

advokatura fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti sifatida ilmiy tushunchasi, uning mazmuni va faoliyat yuritish xususiyatlarini aniqlash;

"chet el davlati advokati" tushunchasiga ilmiy ta'rif berish, unga advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini berish shartlarini ishlab chiqish hamda bu huquqni amalga oshirishdagi cheklovlarni belgilash;

advokatura institutini takomillashtirish va fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqini kafolatlash masalalari bilan bog'liq ilmiy tushunchalar va kategoriyalarning mohiyatini ochib berish;

advokaturaning huquqiy maqomiga oid ilmiy tushuncha va kategoriyalarning mazmunini fuqarolik jamiyati instituti sifatida takomillashtirish hamda fuqarolarning malakali yuridik yordam olish konstitutsiyaviy huquqini ta'minlash kontekstida yoritib berish;

advokatura institutining real huquqni himoya qiluvchi institut sifatida maqomini oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash;

advokatura faoliyati standartlarini shakllantiruvchi xalqaro va mintaqaviy huquqiy hujjatlarni o'rganish hamda ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish imkoniyatlarini aniqlash;

chet el davlatlarida advokatura faoliyatining huquqiy tartibga solinishi bo'yicha qiyosiy-huquqiy tadqiqotlar asosida eng samarali modellarning O'zbekiston milliy huquqiy tizimiga implementatsiyasi bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

advokatlik faoliyatini tartibga solish va uning institutsional hamda funksional mustaqilligini ta'minlash sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti sifatida advokaturaning huquqiy maqomidan kelib chiqib shakllanadigan, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimidan iboratdir.

Tadqiqotning predmeti advokaturaning fuqarolik jamiyati instituti sifatida faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlar qonunchiligi hamda ushbu tajribani milliy qonunchilikka tatbiq etish imkoniyatlari bo'lib, ular orqali advokatlarning institutsional va funksional mustaqilligini ta'minlash, advokatlik litsenziyasini olish istagidagi shaxslar uchun byurokratik

tartib-taomillarni kamaytirish, shuningdek, advokatlik kasbining maqomi va nufuzini oshirish maqsad qilingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda ilmiy qiyosiy-huquqiy, muammoli-maqsadli, mantiqiy, umumlashtirish va tizimli-tuzilmaviy tahlil, yuridik hujjatlarni o'rganish va talqin qilish, ilmiy manbalarni tadqiq etish, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, kuzatish hamda huquqni qo'llash amaliyotini o'rganish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

malakali yuristlarning advokatlik faoliyatiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, yuridik xizmatlar bozorida sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish zarurati mavjudligi sababli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan va tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka imtihonini topshirayotgan nomzodlar uchun advokatlik tuzilmasida ishlash asosiy ish joyi bo'lishi shartligi haqidagi talabni bekor qilish lozimligi asoslantirilgan;

biznes subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlashga, shuningdek, xo'jalik jamiyatlari faoliyati ustidan kasbiy nazoratni kuchaytirish maqsadida advokatlarga tadbirkorlik subyektlari faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, korporativ boshqaruvni mustahkamlash hamda huquqiy xatarlarni kamaytirish maqsadida xo'jalik jamiyatlarining kuzatuv kengashi a'zolari sifatida ishtirok etish huquqini berish lozimligi asoslantirilgan;

tajribali yuristlar uchun advokatlik maqomini olish tartibini yanada soddalashtirish hamda advokatura korpusi tarkibining kasbiy salohiyati va sifat darajasini oshirish zarurati mavjudligi sababli O'zbekiston Respublikasida yuridik mutaxassislik bo'yicha uzluksiz kamida uch yillik ish stajiga yoki yuridik fanlar bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan shaxslar advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tamasdan malaka imtihonida ishtirok etish huquqiga ega bo'lishi lozimligi asoslantirilgan;

advokatlarning protsessual mustaqilligi va ozodligini mustahkamlashga, jismoniy va yuridik shaxslarning advokatura institutiga bo'lgan ishonchni yanada oshishiga erishish maqsadida advokat, ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan, iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy sud ish yurituvlarda ekspert xulosasini olish va ushbu xulosani ish materiallariga qo'shib qo'yilishini talab qilishga haqli ekanligini belgilash lozimligi asoslashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“advokatura” tushunchasiga muallif tomonidan asoslangan ta'rif berilib, u davlat hokimiyati organlari tizimidan mustaqil faoliyat yurituvchi, fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi fuqarolik jamiyatining alohida instituti sifatida belgilanishi zarurligi asoslangan;

“chet el davlati advokati” tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan hamda ushbu toifadagi shaxslarga O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatini amalga oshirish huquqini berish zarurati va uning shartlari asoslangan;

advokatga tijorat tashkilotining kuzatuv kengashi a'zosi bo'lish huquqini berish zarurati va bunday faoliyat advokatning mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozimligi asoslangan;

sud majlislarida advokatning maxsus ishlab chiqilgan mantiyada ishtirok etishini qonunchilikda majburiy tarzda mustahkamlash zarurligi asoslangan;

milliy qonunchilikka advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan bo'lgan muloqotini o'z ichiga olgan hujjatlarni tinglash, olib qo'yish va musodara qilish imkoniyatini istisno etuvchi normalarni joriy etish lozimligi asoslangan;

jinoyat-protsessual kodeksiga surishtiruv/dastlabki tergov bosqichida protsessning tortishuvlilik tamoyiliga oid maxsus moddani kiritish, himoyachiga o'zining mustaqil tergov harakatlarini amalga oshirish huquqini berish zarurligi asoslangan;

aholiga yuridik yordam ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish hamda advokaturaga yosh va malakali kadrlarni jalb qilish maqsadida Advokatlar palatasiga a'zolik bo'yicha kirish badallarini bekor qilish lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan o'rganish usullari, ishonchli materiallar va rasmiy axborot manbaridan foydalanilganligi, xorijiy davlatlar va milliy qonunchilik normalarining o'zaro tahlil qilinganligi, advokatlik faoliyatiga oid xalqaro standartlar o'rganilganligi, O'zbekiston Respublikasining 450 nafar advokati o'rtasida ijtimoiy so'rov o'tkazilganligi, ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotda joriy etilganligi va vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi, shuningdek natijalarning yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, kompleks ilmiy-nazariy tahlil asosida ishlab chiqilgan xulosalar va takliflar advokatura institutini fuqarolik jamiyatining elementi sifatida o'rganish bo'yicha yuridik fan rivojiga hissa qo'shadi. Olingan natijalar advokaturaning huquqiy maqomiga oid muammolarni yanada nazariy anglash jarayonida, advokatura to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha qonun ijodkorligi faoliyatida, huquqni qo'llash amaliyotida hamda huquq normalarini sud tomonidan talqin qilishda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ular bevosita qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, O'zbekiston Respublikasining yangi "Advokatura va advokatura faoliyati to'g'risida"gi Qonuni loyihasini ishlab chiqishda, shuningdek, amaldagi qonunchilikka o'zgartish va qo'shimchalar kiritishda qo'llanishi mumkin. Olingan xulosalar va tavsiyalar huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga hamda advokatlar tomonidan yuridik yordam ko'rsatishning milliy standartlarini ishlab chiqishga xizmat qilishi mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari ta'lim sohasida ham amaliy ahamiyatga ega bo'lib, yuridik fanlarni oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda, shuningdek, advokatlarning malakasini oshirish tizimida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagilarda o'z ifodasini topgan:

malakali yuristlarning advokatlik faoliyatiga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, yuridik xizmatlar bozorida sog'lom raqobat muhitini kuchaytirish zarurati mavjudligi sababli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish

istagini bildirgan va tegishli mutaxassislik bo'yicha malaka imtihonini topshirayotgan nomzodlar uchun advokatlik tuzilmasi asosiy ish joyi bo'lishi shartligi haqidagi talabni bekor qilish bo'yicha ilgari surilgan taklifdan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2024-yil 3-iyundagi 10-mh-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Advokat stajyori va yordamchisining faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 16-sentabrdagi dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi malakali yuristlarning advokatlik kasbiga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga hamda yuridik xizmatlar bozorida raqobat muhitini kuchaytirishga xizmat qilgan;

biznes subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlashga, shuningdek, xo'jalik jamiyatlari faoliyati ustidan kasbiy nazoratni kuchaytirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari faoliyatining shaffofligini ta'minlash maqsadida advokatlarga xo'jalik jamiyatlarining kuzatuv kengashi a'zolari sifatida ishtirok etish huquqini berish lozimligi bo'yicha taklifdan "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 16-sentabrdagi dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi biznes subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlashga, shuningdek, xo'jalik jamiyatlari faoliyati ustidan kasbiy nazoratni kuchaytirishga xizmat qilgan;

tajribali yuristlar uchun advokatlik maqomini olish tartibini yanada soddalashtirish hamda advokatura korpusi tarkibining kasbiy salohiyati va sifat darajasini oshirish zarurati mavjudligi sababli O'zbekiston Respublikasida yuridik mutaxassislik bo'yicha uzluksiz kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan shaxslarga advokatlik tuzilmasida stajirovka o'tamasdan malaka imtihonida ishtirok etish huquqini berish yuzasidan bildirilgan takliflardan "Advokatura va advokatlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2024-yil 16-sentabrdagi dalolatnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi tajribali yuristlar uchun advokat maqomini olish tartibini soddalashtiradi hamda advokatura korpusining sifat tarkibini oshirishga xizmat qilgan;

advokatlarning protsessual mustaqilligi va kasbiy erkinligini mustahkamlash, shuningdek, jismoniy hamda yuridik shaxslarning advokatura institutiga bo'lgan ishonchini yanada oshirishga erishish maqsadida advokat iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan ekspertiza o'tkazilishini so'rash huquqiga egaligi haqidagi takliflardan O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida" O'RQ-786-sonli Qonuni 4-moddasi (O'zbekiston Respublikasining "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasining to'rtinchi qismi to'rtinchi xatboshisi)ni ishlab chiqishda

foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 28-maydagi 9/dn-113-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga tatbiq etilishi sud jarayonida tortishuvlilik tamoyilining kuchayishiga, advokatlarning protsessual mustaqilligi va ozodligini mustahkamlashga, hamda advokatura institutiga bo‘lgan ishonchning oshishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, shu jumladan ilmiy jurnallarda 10 ta (7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) ilmiy maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘qqizta paragrafni o‘z ichiga olgan 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 131 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish qismida** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi) tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga aloqadorligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, ilmiy yangiligi va tadqiqot natijalarining amaliy natijasi, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy etilishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilishi hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilmasi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Advokatura institutining huquqiy davlatdagi o‘rni”** deb nomlanib, unda zamonaviy demokratik huquqiy davlatda advokatura faoliyatining nazariy-metodologik va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda advokaturaning fuqarolik jamiyati instituti sifatidagi dualistik tabiati o‘rganiladi, fuqarolarning malakali yuridik yordam olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqi tahlil qilinadi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatining normativ-huquqiy tartibga solinishi bilan bog‘liq masalalar yoritiladi.

Dissertant advokatura instituti dualistik tabiatga ega ekanligini asoslab berdi, ya‘ni u bir vaqtning o‘zida mustaqil jamoat birlashmasi va ommaviy-huquqiy institut xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Tadqiqotda advokaturani faqat nodavlat notijorat tashkiloti sifatida ko‘rib chiqish metodologik jihatdan noto‘g‘ri ekani asoslangan, chunki u faqatgina o‘z a‘zolarining emas, balki cheklanmagan doiradagi shaxslarning manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ommaviy-huquqiy vazifani bajarayotgan institutdir. Muallif advokaturani fuqarolik jamiyatining alohida instituti sifatida talqin qilishni taklif etadi. Bu institut ijtimoiy o‘zini-o‘zi

tartibga solishning o'ziga xos mexanizmi bo'lib, u cheklov va muvozanat tizimining tarkibiy qismi sifatida umumiy davlat-huquqiy tuzilma bilan uzviy bog'liqdir.

Dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 141-moddasida mustahkamlangan fuqarolarning malakali yuridik yordam olish huquqi huquqiy davlatda inson huquq va erkinliklarini ta'minlashning asosiy konstitutsiyaviy kafolati ekanligi asoslab berilgan. Bu norma advokatura instituti orqali amaliy mazmun bilan to'ldiriladi va fuqarolarning sud himoyasiga erkin murojaat qilish huquqini real ta'minlashga xizmat qiladi. Muallifning ta'kidlashicha, mazkur huquqning samarali amalga oshirilishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir qator omillar bilan belgilanadi: advokaturaning institutsional va funksional mustaqilligi, advokatning protsessual immuniteti hamda u va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi munosabatlarning maxfiyligi (ishonch bildiruvchining immuniteti). Muallif tomonidan advokatlik sirini saqlash talablari bilan jinoyat yo'li bilan olingan daromadlarni legallashtirish to'g'risida ma'lumotlarni oshkor etish majburiyati o'rtasidagi normativ kolliziyalar aniqlangan, bu esa kasbiy maxfiylikning buzilish xavflarini minimallashtiruvchi huquqiy mexanizmlarni joriy etish zarurligidan dalolat beradi.

O'tkazilgan tahlil asosida muallif O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimi konstitutsiyaviy normalar, xalqaro-huquqiy standartlar, maxsus qonunchilik, protsessual kodekslar va o'zini o'zi tartibga soluvchi korporativ hujjatlarni o'z ichiga olgan ko'p darajali normativ-huquqiy hujjatlar tizimidan iborat ekanligini isbotladi. Advokatlik faoliyatining milliy me'yorlari va xalqaro standartlari bo'yicha qiyosiy-huquqiy tahlil dissertantga qonunchilikni umumqabul qilingan prinsiplarga moslashtirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash hamda advokaturani huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Dissertatsiya ishida O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini isloh qilishning asosiy bosqichlari o'rganilgan bo'lib, ular 2008-yil 1-maydagi PF-3993-sonli va 2018-yil 12-maydagi PF-5441-sonli Prezident farmonlari hamda 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida boshlangan. Dissertant asoslab berganidek, umumdavlat demokratik islohotlari kontekstida huquqni muhofaza qilish tizimining bosqichma-bosqich modernizatsiyasi amalga oshmoqda, bu esa advokaturaning rasmiy yuridik maslahat berishdan inson huquqlarini to'liq himoya qiluvchi institutga aylanishi bilan tavsiflanadi. Muallif tomonidan davlatning advokaturaga nisbatan huquqiy siyosatining evolyutsion xarakteri aniqlangan.

O'tkazilgan tahlil asosida dissertant xulosa qiladiki, advokatlarning kasbiy etikasi qoidalari qat'iy ma'noda advokatura to'g'risidagi qonunchilikning bir qismi hisoblanmaydi, chunki ushbu Qoidalarning buzilishi uchun intizomiy javobgarlik bevosita Qoidalarning o'ziga emas, balki O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan yuzaga keladi. Muallif ta'kidlaganidek, advokatura institutini yanada rivojlantirish kasbiy etika normalarining huquqiy maqomini oshirish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Advokatura faoliyatining xalqaro-huquqiy standartlari va xorijiy tajriba”** deb nomlanib, unda advokatura kasbiga oid xalqaro standartlar o‘rganiladi, advokatura faoliyatini tartibga soluvchi asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar tahlil qilinadi, shuningdek, xorijiy davlatlarda advokatura faoliyatini tashkil etish tajribasi qiyosiy-huquqiy tahlil asosida o‘rganilib, advokatura institutini takomillashtirishga oid eng samarali modellari va amaliyotlari aniqlanadi.

Dissertant advokatura faoliyatining xalqaro-huquqiy standartlari huquqiy davlatda advokatura institutining asosini tashkil etuvchi prinsiplari va talablari yaxlit tizimini ifodalaydi, deb asoslab bergan. Ishda xalqaro standartlarning mazmuni ikki asosiy tarkibiy qismdan shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan: advokatning malakasiga qo‘yiladigan talablar (ta‘lim darajasi, ish tajribasi, shaxsiy fazilatlar) hamda yuridik xizmatlar ko‘rsatish sifatiga qo‘yiladigan talablar (umumiy prinsiplarga va sohaviy majburiyatlarga muvofiqligi). Muallif tomonidan advokatura faoliyatining xalqaro standartlariga aylangan asosiy deontologik prinsiplari — mustaqillik, qonuniylik, o‘zini o‘zi boshqarish, axloqiy tamoyillarga rioya qilish, kasbiy sirni saqlash va mos kelmaslik prinsipi — ajratib ko‘rsatilgan va tahlil qilingan.

O‘tkazilgan tahlil asosida muallif advokatura faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar ko‘p darajali tizimni tashkil etishini isbotlagan. Ushbu tizimni uch toifa manbaga ajratish mumkin: umumiy manbalar (inson huquqlari bo‘yicha universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar), maxsus manbalar (advokaturaning huquqiy maqomi va tashkil etilishi bilan bog‘liq tor doiradagi xalqaro va mintaqaviy hujjatlar) hamda maxsus tavsivaviy manbalar (xalqaro advokatura uyushmalari tomonidan qabul qilingan hujjatlar).

Dissertatsiya ishida advokatura faoliyatini tartibga solishga asos bo‘luvchi asosiy xalqaro hujjatlar o‘rganilgan. Muallifning ta‘kidlashicha, huquqiy himoya huquqining asosiy kafolatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda MDH Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to‘g‘risidagi Konvensiyasida mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lib, ular asosiy (birlamchi) darajadagi kafolatlarni tashkil etadi. Ushbu kafolatlar maxsuslashtirilgan hujjatlar bilan to‘ldiriladi: Yuridik kasb egalarining roliga oid Asosiy tamoyillar (1990), Yuridik kasb mustaqilligiga doir standartlar (1990), Yevropa Hamjamiyati mamlakatlari advokatlari uchun umumiy qoidalar kodeksi (1988) va Advokatura faoliyatining asosiy prinsiplari Xartiyasi (2016).

Dissertant xorijiy davlatlar (Qozog‘iston, Litva, Rossiya, Ruminiya, Ukraina) qonunchiligini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish asosida O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini modernizatsiya qilishning istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash mumkinligini asoslab bergan. Muallifning fikricha, alohida e‘tiborga loyiq innovatsion elementlar quyidagilardan iborat: sud majlislarida advokat mantiyasini kiyish amaliyoti, yuridik yordam ko‘rsatish bo‘yicha batafsil standartlarni ishlab chiqish, malaka imtihoniga kirish uchun yuridik ish stajiga qo‘yiladigan talablarni liberallashtirish, shuningdek, advokat bo‘lmagan faoliyat turlariga ruxsat berish

doirasini kengaytirish, jumladan, tijorat tashkilotlarining kuzatuv kengashlariga a'zo bo'lish huquqini ta'minlash.

Xorijiy tajriba tahlili asosida dissertant advokatning kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida uning institutsional himoyasini sezilarli darajada kuchaytirish zarurligini xulosa qilgan. Muallif milliy qonunchilikka quyidagi normalarni joriy etish maqsadga muvofiqligini asoslab bergan: advokatning telefon suhbatlarini tinglash, advokat va mijoz o'rtasidagi muloqotni o'z ichiga olgan hujjatlarni olib qo'yish va musodara qilish, shuningdek, himoya bilan bog'liq masalalar yuzasidan advokat tomonidan tuzilgan yozuvlarni olish imkoniyatini istisno etuvchi normalar. Ishda, shuningdek, himoyachining protsessual vakolatlarini kuchaytirish, ya'ni tergov va sud organlaridan mustaqil ravishda mutaxassislar va ekspertlar bilan shartnomalar tuzish huquqini berish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiyada chet el fuqarolarini mamlakat hududida advokatura faoliyatiga jalb etish masalasi alohida dolzarblik kasb etayotgani asoslab berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, bunday liberallashtirish raqobatni rag'batlantirishi, yuridik xizmatlar sifatini oshirishi hamda milliy huquqiy tizimning xalqaro yuridik hamjamiyatga integratsiyalashuviga xizmat qilishi mumkin. Dissertant bu amaliyot milliy xavfsizlik va suverenitetka tahdid tug'dirmasligi uchun uni joriy etishda rioya qilinishi lozim bo'lgan aniq shart-sharoitlarni taklif qilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida advokatura institutini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida advokaturaning fuqarolik jamiyatidagi huquqni himoya qiluvchi institut sifatida faoliyat yuritishiga doir dolzarb muammolar o'rganiladi, advokaturaning institutsional va funksional mustaqilligini ta'minlash masalalari tahlil qilinadi, shuningdek, huquqiy davlat barpo etilishi sharoitida advokaturaning huquqiy maqomini oshirish va advokatlarning kasbiy huquqlarini himoya qilish kafolatlarini takomillashtirish istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Dissertant O'zbekiston Respublikasining huquqiy demokratik davlat sifatida to'liq e'tirof etilishi uchun fuqarolik jamiyati institutlarini, jumladan, asosiy huquqni himoya qiluvchi mexanizm sifatidagi advokatura institutini rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Dissertatsiya ishida advokaturaning institutsional va funksional mustaqilligi O'zbekistonda bir qator muhim jihatlar bo'yicha xalqaro standartlarga mos emasligi asoslantirilgan. Jumladan, Advokatlar palatasi raisini saylash tartibi, malaka komissiyalarini shakllantirish, Palata faoliyatini monitoring qilish tizimi kabi masalalarda muammolar mavjud. Muallif tomonidan “Advokatura to'g'risida”gi Qonunining ayrim normalari bilan xalqaro hujjatlarda belgilangan advokatura mustaqilligini kafolatlovchi asosiy prinsiplari o'rtasida jiddiy qarama-qarshiliklar aniqlangan.

O'tkazilgan tahlil asosida muallif advokatura faoliyatiga ma'muriy ta'sir ko'rsatishni istisno etish maqsadida Advokatlar palatasi va Adliya vazirligi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligini isbotlagan. Dissertant “Advokatura to'g'risida”gi Qonunga hamda unga muvofiq qabul qilingan quyi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha kompleks aniq takliflarni ishlab chiqqan. Ushbu takliflar Advokatlar palatasining institutsional mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unga quyidagi vakolatlarini berishni

nazarda tutadi: malaka komissiyalarini shakllantirish, davlat organlarining Palata rahbariyatini saylash jarayoniga aralashuv ehtimolini istisno etish.

Dissertatsiya ishida advokatura tomonidan o'zining huquqni himoya qiluvchi funksiyalarini to'liq amalga oshirishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar o'rganilgan. Jumladan: advokatlarni himoyalayotgan shaxslarga rasmiy asoslar bilan asossiz ravishda yo'latmaslik, advokatlarning rasmiy so'rovlariga e'tibor berilmasligi, Advokatlar palatasining faqat statistik organ sifatidagi nomigina roli. Muallif isbotlaganidek, advokaturaning huquqiy maqomini oshirish uchun faqatgina advokatlarning protsessual huquqlarini kengaytirish emas, balki ularning huquqlariga huquqni muhofaza qiluvchi va sud organlari tomonidan so'zsiz rioya etilishi, shuningdek, advokat kasbining jamiyatdagi nufuzini oshirish zarur.

Dissertant O'zbekiston Respublikasi advokatura korpusining soni va sifat jihatdan tarkibini statistik tahlil qilish asosida jiddiy muammolar mavjudligini asoslab bergan. Xususan, bir nafar advokatga o'rtacha 5,5 ming nafar fuqaro to'g'ri kelishi, yosh advokatlar ulushining juda pastligi (umumiy sonning atigi 1% dan ortiq), shuningdek, kuchli gender nomutanosibligi (ayollar va erkaklar o'rtasidagi nisbat 17,6% ga 82,4%) aniqlangan. Muallif tomonidan advokaturaga yangi kadrlarni jalb etish bo'yicha aniq choralar taklif qilingan, jumladan: Advokatlar palatasiga kirish badalini bekor qilish, chet el fuqarolarini O'zbekiston hududida advokatura faoliyatiga yo'l qo'yish, advokatlik kasbiga kirish uchun yuridik ish stajiga qo'yiladigan talablarni liberallashtirish.

Dissertant tomonidan advokatlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijasida aniqlanishicha, respondentlarning 90 foizdan ortig'i advokatlik faoliyati davomida o'z huquqlarining kamida bir marta buzilishiga duch kelgan. Eng ko'p uchraydigan huquqbuzarliklar quyidagilardan iborat: advokat so'rovlariga javoblarning taqdim etilmasligi yoki kechiktirib yuborilishi (95% ishtirokchi tomonidan qayd etilgan), himoyalayuvchi bilan uchrashuvga to'sqinlik qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar binolariga kirishda shaxsiy ko'zdan kechirishga urinishlar. Dissertant advokatning qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilgan mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy javobgarlik choralari joriy etish zarurligini asoslab bergan va bu borada O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqqan.

Dissertatsiyada jinoyat protsessida tomonlar o'rtasidagi haqiqiy tortishuvlilik tamoyilini ta'minlash uchun Jinoyat-protsessual kodeksiga dastlabki tergov va surishtiruv bosqichida tortishuvlilikni nazarda tutuvchi maxsus modda kiritish zarurligi asoslab berilgan. Muallif isbotlaganidek, himoyachining protsessual vakolatlarini kengaytirish — xususan, o'z mustaqil surishtiruvini olib borish, ekspertiza o'tkazish to'g'risida ariza berish, tergov qilinayotgan ishga taalluqli axborotni rasmiy tartibda so'rab olish huquqini joriy etish — jinoyat ishlarini yanada obyektiv ko'rib chiqishga va sudgacha bo'lgan bosqichda yuz beradigan protsessual xatoliklarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Dissertant shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qiluvchi qonunchilik doirasiga kiruvchi axborotga advokatlarning kirishini ta'minlash uchun innovatsion mexanizmi

taklif qilgan. Unga ko'ra, advokatlarga bunday ma'lumotlar bilan tanishish huquqi beriladi, biroq faqat tegishli davlat organlari binolarida va nusxa olish huquqisiz. Bu yechim shaxsiy ma'lumotlar maxfiyligini saqlagan holda advokatlarning himoya funksiyalarini to'laqonli amalga oshirishiga imkon yaratadi. Muallif tomonidan advokatlarga nisbatan "habeas corpus" institutini joriy etish zarurligi asoslab berilgan, bu esa advokatlarga nisbatan jinoyat-protsessual harakatlarga sanksiya berish vakolatini prokuratura organlaridan sudlarga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xulosa

Advokatura institutining huquqiy davlat qurilishidagi maqomini oshirish masalasiga bag'ishlangan dissertatsion ilmiy-tadqiqot ishi asosida quyidagi nazariy va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega xulosalar chiqarildi:

I. Advokatura institutini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar:

1. Ilmiy ishda quyidagi mualliflikka oid umumiy ta'riflar berilgan: "Advokatura", "Chet el davlati advokati":

"Advokatura – bu davlat hokimiyati organlari tizimidan mustaqil faoliyat yurituvchi, fuqarolik jamiyatining alohida instituti bo'lib, fuqarolar va yuridik shaxslarni boshqa fuqarolar, tashkilotlar va davlat organlarining mumkin bo'lgan noqonuniy harakatlaridan himoya qiluvchi institut sifatida namoyon bo'ladi hamda advokatura faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslarning mustaqil, ixtiyoriy va professional birlashmalarini hamda yakka tartibdagi advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi shaxslarni o'z ichiga oladi".

2. Advokaturaning fuqarolik jamiyati institutidagi o'rni va uning faoliyatiga xos xususiyatlar tahlil qilinadi, ular esa davlatning rivojlanganlik va demokratikligining darajasini belgilaydi. Shuningdek, advokatura fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti sifatida nafaqat fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish funksiyasini bajarishi, balki professional bilim, tajriba hamda huquqiy nigilizmni kamaytirish orqali huquqiy nomutanosiblikni fuqarolar foydasiga bartaraf etuvchi vosita sifatida ham xizmat qilishi haqidagi xulosa asoslab beriladi.

3. Zamonaviy davlatda advokatura huquqiy maqomini tahlil qilish uning mustaqillik va o'zini o'zi boshqarish tamoyillariga asoslangan holda faoliyat yurituvchi fuqarolik jamiyatining o'ziga xos instituti sifatidagi dualistik tabiatga ega ekanligini tasdiqlash imkonini beradi. Advokaturani faqat nodavlat notijorat tashkiloti sifatida talqin qilish metodologik jihatdan noto'g'ri hisoblanadi, chunki u faqat a'zolarining manfaatlarini emas, balki cheklanmagan doiradagi shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq bo'lgan ommaviy-huquqiy funksiyani ham bajaradi. "Advokatura to'g'risida"gi Qonun normalari bilan fuqarolik jamiyatining konseptual asoslari o'rtasida aniqlangan normativ qarama-qarshiliklar advokatura institutini qayta konseptuallashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bu institut jamiyat birlashmasi va ommaviy-huquqiy institut elementlarini o'zida mujassam etgan sintezlangan, gibrid tuzilma sifatida shakllanishi lozim. Shu tariqa, advokatura ijtimoiy o'z-o'zini tartibga solishning o'ziga xos mexanizmi, davlat-huquqiy tuzilma ichiga integratsiyalashgan tormoz va muvozanatlar tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

